

KNAUF-Rotband

Gipsli universal suvoq

Quruq qurilish aralashmalari

08/2025



Qo'llanish sohasi

KNAUF-Rotband – polimer qo'shimchalar qo'shilgan yopishqoq gips asosidagi quruq aralashma. Me'yoriy namlikdagi bino ichidagi devor va shiftlarni, shuningdek, oshxona va vannaxonalarni (namgarchilikdan himoyani ta'minlovchi qoplama bilan) yuqori sifatda suvoq qilishga mo'ljallangan. G'isht devor (keramika, silikat, kovakli v.b.), beton, gips va beton bloklar, eski sement va gipsli suvoqlar, gazobeton va penobeton kabi odatiy qattiq asoslarga, shuningdek, sement-qirindi plitasi, GKQ (GQP), sement qipig'i plitalari va bloklari kabi murakkab asoslarga surtiladi. Ish texnologiyasiga amal qilish sirt sifatini Q3 (K3) ga yetkazish imkonini beradi.

Qadoqlash va saqlash

KNAUF-Rotband aralashmasi 25 kg qog'oz qoplarda. Qoplar quruq binoda yog'och tagliklarda, aralashmaning ishchi xususiyatlarini saqlash uchun polietilen plenklar zich yopilgan holda saqlanadi. Yirilgan qoplardagi material birinchi navbatda ishlatib yuboriladi. Qadog'i ochilgandan so'ng quruq aralashmani to'liq ishlatib yuborish tavsiya etiladi. Shikastlanmagan qog'oz qadoqdagi saqlash muddati – tayyorlangan sanasidan boshlab 6 oy. Tayyorlangan sanasi qog'oz qopning yonboshida, polietilen qopning orqa tomonida ko'rsatilgan. Saqlash muddati tugagandan so'ng qadoq va mahsulot maishiy chiqindi sifatida utilitatsiya qilinadi.

DIQQAT!

KNAUF kompaniyasi mahsulotning noto'g'ri qo'llanilishi natijasida olingan suvoq yuzasining sifati va uzoq muddatli mustahkamligini kafolatlamaydi.

Texnik xususiyatlari

- Suvoq qatlami qalinligi: devor: 5-50 mm (cheklangan joyda -100 mm gacha);
- shift: 5-15 mm;
- Zarralar o'lchami: 1,25 mm gacha;
- Qotish boshlanishi: 45-60 daqiqa;
- Siqilgandagi mustahkamligi: > 2,0 MPa;
- Egilgandagi mustahkamligi: > 1,0 MPa;
- 10 mm qatlamning 20 °C harorat va 60% havo namligida qurish vaqti ~ 7 sutka*;

*qurish muddati atrofdagi shart-sharoit o'zgarganga qisqarishi yoki uzayishi mumkin

Yuzani tayyorlash

Asos quruq, mustahkam, muzlamagan, harorati +5 °C dan baland bo'lishi, sho'rlanish izi va yuzaga kelishiga sharoit bo'lmasligi zarur. Betonning qoldiq namlanishi 3% dan, qolgan asoslarniki 5% dan oshmasligi kerak. Katta notekisliklar yo'q qilinadi. Beton opalubkadan qolgan moylardan tozalanadi. Yuzaning kir va ko'chgan joylarini tozalash lozim. Asosdagi chang mexanik yo'l bilan (cho'tka, changyutkich v.b.) yo'q qilinadi. Astarlash (Gruntovkalash) yuzadan chang yo'qotilishini ta'minlamaydi. Qorishma notekis qotishidan, ortiqcha qurib ketishidan va asosga yomon yopishishidan saqlanish uchun suvaladigan shimuvchanligi yuqori yuzalar (masalan, gazobeton va penobeton, keramik va silikat g'isht, bunadan tashqari, sement qipig'i plitalari va bloklariga) KNAUF-Multigrund bilan ishlov berilishi kerak. Zich, silliq, shimuvchanligi oz va namlikni shimmaydigan yuzalar (masalan, beton, sement suvoq, penopolistiroplitalar, beton bloklar (devor keramzit-sement bloki), sement qirindi plitasi) suvoq bilan yuza orasidagi adgeziyani (yopishish) yaxshilash uchun KNAUF-Betokontakt astari (gruntovkasi) bilan ishlov beriladi. Astarlangandan (Gruntovkalangan) so'ng quritiladi: KNAUF-Multigrund - 6 soat, KNAUF-Betokontakt - 12 soat. Astarlangan (Gruntovkalangan) yuzaga chang tushishi mumkin emas.

DIQQAT!

KNAUF kompaniyasi asos oldindan astarlangandan (gruntovkalangan) suvalganda, shuningdek, boshqa ishlab chiqaruvchilarning astari (gruntovkasi) qo'llangan holatlarda yuzaning sifati va uzoq xizmat qilishini kafolatlamaydi.

Mayoq profillarni o'rnatish

Asos yuzasiga tik yo'nalishda 30 sm oralatib oz-ozdan KNAUF-Rotband yoki KNAUF-Perlfiks qorishmalari surtiladi va unga mayoq profillar bosilib, bir tekislikka keltiriladi. Mayoq profillarni o'rnatishda KNAUF-Kremmer klips universl mahkamlagichlaridan ham foydalanish mumkin. Mayoq profillar oralig'i rejacho'p uzunligidan 10-20 sm kamroq bo'lishi kerak.

Himoyaviy burchak profillarini o'rnatish

KNAUF-Rotband yoki KNAUF-Perlfiks qorishmalari tashqi burchakka 30 sm oralatib oz-ozdan surtiladi. Himoyaviy burchak profillari rejacho'p/shaytonni bosgan holda qorishmaga mayoq profillar yoki oynaga yondosh profillar sathida o'rnatiladi.

Materiallar sarfi

Materiallar sarfi 1 m² yuzaga yo'qotishlarni hisobga olmagan holda, taxminan, ko'rsatilgan.

Material	O'lcham birligi	Miqdori
KNAUF-Rotband	kg.	8,5*
KNAUF-Betokontakt	kg.	0,23
KNAUF-Multigrund	kg.	0,2

* suvoq qatlami qalinligi 10 mm bo'lganida quruq aralashmaning bir qopi (25 kg) ~ 3 m² yuzani 10 mm qalinlikda suvashga yetadi

Ish tartibi

Suvoq qorishmasini tayyorlash

Asos va havo harorati +5 °C va +30 °C oralig'ida bo'lishi kerak. Xonadagi bu harorat rejimi butun pardozlash ishlari davrida kechayu kunduz hamda ish boshlanishidan kamida ikki sutka oldin va ish tugagandan keyin 12 sutka keyin saqlab turilishi kerak. Qopdagi mahsulot (25 kg) 14-16 l toza sovuq suv solingan idishga bo'shatiladi. Bir xil massa hosil bo'lgunga qadar qurilish mikseri bilan aralashtiriladi. Zaruriyatga ko'ra, kerakli konsistensiya paydo bo'lgunicha suv qo'shib, yana aralashtiriladi. Qorishma tayyorlash va suvaladigan yuzaga surtish paytida idishga quruq aralashma qo'shish mumkin emas! Qorishmaga boshqa komponentlar qo'shish mumkin emas!

Suvoq qorishmasini surtish va tekislash

Tayyorlangan suvoq qorishmasini aralashtirilgandan keyin 20-25 daqiqa ichida devor yuzasiga 5-50 mm qalinlikda surtish kerak, uni kurakcha (kelma) yordamida otib yoki suvoq andavasi yordamida pastdan yuqoriga qarab surtish lozim. Qorishmani shiftga suvoq andavasi bilan 5-15 mm qalinlikda "o'ziga tortib" surtish kerak. So'ngra rejacho'pdan foydalanib, surtilgan qorishma tekislanadi. Agar ish mayoq o'rnatmasdan bajarilsa, yuzadagi gorizont va vertikal bo'yicha past-balandliklar tekshiriladi. Zaruriyatga ko'ra, qayerda qorishma yetishmasa, qo'shimcha qatlam surtiladi.

DIQQAT!

Devorga birinchi qatlam batamom quriganidan keyingina qo'shimcha qatlam surtish mumkin. Buning uchun yopishish maydonini oshirish maqsadida hali qotib ulgurmagan birinchi qatlamni suvoq tarog'i bilan "tarab chiqish" yoki shpatel bilan to'lqinsimon ariqchalar ochish tavsiya etiladi. Suvoq yuzasi batamom quriganidan keyin KNAUF-Multigrund astari (gruntovkasi) bilan ishlov beriladi. Astar (Gruntovka) quriganidan keyin (kamida 6 soat) ikkinchi suvoq qatlami surtiladi. Sementqirindi plitasi, sement qipig'i plitasi/bloki va penopolistiroldan tashkil topgan asoslar butun yuzasi bo'ylab kataklari 5x5 mm dan kam bo'lmagan shishatolali to'r bilan o'zaklanib suvaladi. Shishato'r suvoq qatlamining yuqori uchinchi qismida joylashishi kerak. To'r sarfi 1 m² yuzaga, taxminan, 1,2 m² bo'ladi (ustma-ust tushish hisobiga). Shuningdek, har xil jinsli materiallar (masalan, g'isht va beton v.b.) tutashgan joylari ham o'zaklanadi, bunda kengligi 20 sm bo'lgan shishatolali to'r tasma yangi surtilgan qorishmaga bosiladi.

MUHM!

Shishatolali to'rdan foydalanish ehtimoliy yoriqlar tushishidan to'la himoya qilmaydi, ularning yuzaga kelishi va kengayishi xavfini kamaytiradi xolos.

Yuzalarni tekislash

Q1 sifatli yuza kategoriyasi

Suvoq qorishmasi qota boshlashi bilanoq (surtilgandan, taxminan, 45-60 daqiqa o'tib) yuza trapetsiyasimon rejacho'pni asosga nisbatan tik tutgan holda ortiqcha joylarini olib va chuqurchalarni to'ldirib tekislanadi. Quriganidan keyin suvoq yuzasi Q1 (K1) sifat kategoriyasiga mos keladi va keramik plita, keramogranit kabilar terilishi mumkin bo'ladi. Buning uchun suvoqqa oldindan KNAUF-Tifengrund astari (gruntovkasi) yordamida ishlov beriladi, u quriganidan keyin KNAUF plitka yelimi yordamida qoplama materiallar terishga kirishish mumkin. Suv plitkaga bevosita tushadigan joylarda plitka terishdan oldin astarlangan (gruntovkalangan) suvoq yuzasiga KNAUF-Flexendixt gidroizolyatsiyasi surtiladi. Suvalgan yuzaning keramik plitka yopishtirish uchun minimal qalinligi -10 mm. Pardoz plitkalarining yelim bilan birga maksimal vazni 25 kg/m² dan ortib ketmasligi kerak.

Yuzani ishqalab tekislash va silliqqlash.**Q2-Q3 sifatli yuza kategoriyasi**

Agar yuza valik bilan bo'yashga yoki gulqog'oz yopishtirishga tayyorlanayotgan bo'lsa, unda suvoq qota boshlaguncha mayoq profilarni olib qo'yish tavsiya etiladi. Hosil bo'lgan chuqurcha rejacho'p sidirib olgan qorishma qoldiqlari bilan to'ldiriladi. Sidirib silliqqlash ishlaridan so'ng qisqa to'xtalib (15-20 daqiqa), rejacho'p sidirgandan keyingi suvoq yuzasidagi kichik past-balandliklarni shpatel bilan to'g'rilash kerak. Keyin (15-20 daqiqa o'tgach) yuza suv bilan namlanadi va gubkali qirg'ich bilan aylanma harakat vositasida ehtimoliy notekisliklar va avvalgi ish bosqichlaridan qolgan izlar yedirib yo'qotiladi. Xira yuza paydo bo'lguncha qisqa to'xtalib (ho'llanganidan keyin taxminan 10-15 daqiqa) qilib, suvoq zanglamaydigan metall tekislagich yoki shpatel yordamida keng harakatlar bilan tekislanadi. Qurigandan keyin ushbu yuza Q2 (K2) sifat kategoriyasiga mos keladi. Bunday yuzaga og'ir yoki strukturali gulqog'ozlar yopishtirish, strukturali bo'yoqlar berish mumkin. Shift yuzasi tekislanganidan so'ng bino konstruksiyasi unga beradigan ehtimoliy zo'riqishni bartaraf etish uchun qotmagan suvoq qatlamini suvoq arrasi bilan xona perimetri bo'ylab butun chuqurligicha kesib qo'yish tavsiya etiladi. Shuningdek, binoning cho'kish va/yoki konstruksiyaning o'tirishi ehtimoli katta bo'lganda, har xil devor materiallarining birikuv burchaklarida bunday kesiklar tushirish tavsiya etiladi. Yuzani yupqa gulqog'ozga, xira bo'yoqqa yoki yupqa qatlamli dekorativ materiallar qoplashga tayyorlashda surtish boshlanganidan so'ng 2,5-3 soat o'tib, uzog'i bir sutkagacha, suvoq yana yaxshilab ho'llanadi va metall tekislagich yoki keng shpatel bilan qaytadan silliqqlash kerak. Natijaviy yuza Q3 (K3) kategoriyasiga mansub bo'ladi. Bu sifat kategoriyasiga KNAUF-Rotband Finish, kabi gips asosli yakuniy shpaklyovkalar bilan ham erishish mumkin, ular bir marta silliqqlangan, quritilgan va KNAUF-Tifengrund bilan astarlangan (gruntovkalangan) suvoq yuzasiga surtiladi. Yuzani shpaklyovkalash eng talabchan yakuniy qoplamaga (yarim yaltiroq bo'yoqlar, sadaf rangli/lok qoplamalar, metall tusli gulqog'ozlar, venetsiyacha suvoq v.b.) loyiq Q4 (K4) sifat kategoriyali yuzaga erishish uchun ikki marta silliqqlangan yoki quruq shpaklyovkalangan suvoq yuzasiga KNAUF-Rotband Pasta Profi pastasimon yakuniy shpaklyovkasini surtish kerak.

Yuzani tekislash.**Q4 sifatli yuza kategoriyasi**

Eng talabchan pardozlash qoplamalari (yarim yaltiroq bo'yoqlar, marvarid/bo'yoq qoplamalari, metallizatsiyalangan oboylar, venetsiyalik suvoq va hokazo) uchun mos bo'lgan Q4 (K4) sifat toifasidagi sirtini olish uchun ikki marta tekislangan yoki quruq shpaklyovkalar bilan shpaklyovka qilingan suvoq yuzasiga KNAUF-Rotband Pasta Profi pardozlash pastasini surtish kerak.

DIQQAT!

Keyingi ishlarni o'tkazishga astarlash (gruntovkalash) shpaklevkalash, gidroizolyatsiya surtish, plitka qoplash, bo'yash, gulqog'oz yopishtirish v.b.) faqat suvoq qatlami to'la qurigandan keyin ruxsat etiladi. Aks holda yakuniy qoplama ko'chishi, mo'g'or bosishi, sifati buzilishi kabi mog'or paydo bo'lishi mumkin.

Tavsiyalar

Suvoq tez qurishi uchun xonada yaxshi ventilyatsiyani ta'minlash va yelvizakka yo'l qo'ymaslik kerak. Suvalgan yuzaga issiqlik pushkasini yo'naltirish mumkin emas. Qurishni tezlatish uchun qurilish quritkichidan foydalanish mumkin. Pardoz qoplamasi berishdan oldin suvoq yuzasiga KNAUF-Tifengrund astari (gruntovkasi) bilan ishlov beriladi. Quruq aralashmaga qo'shiladigan suv harorati +5 °C dan +30 °C gacha bo'lishi kerak. Bundan issiqroq suv qorishmaning ishchi xususiyatlarini yomonlashtiradi va suvoq yorilishiga sabab bo'lishi mumkin.

DIQQAT!

Ishlab chiqaruvchi tevaragi ochiq xonada (yelvizakda), sovuq xonalarda, shuningdek, namligi yuqori xonalarda ish olib borilganda ko'rsatilgan qotish muddati, suvoqqa ishlov berish tezligi va qulayligi, shuningdek, yakuniy yuza sifati uchun kafolat bermaydi. Asosning ortiqcha namligi yoki qurishning uzoq cho'zilishi (14 kundan ortiq) KNAUF-Rotband asosdan ko'chishida sabab bo'lishi mumkin.

Asbob-uskunalar

- Plastmassa bak 50-125 l;
- Suvoq mikseri ($N \geq 800$ Vt);
- Zanglamaydigan po'lat kurakcha yoki 150 mm shpatel;
- Suvoq andavasi;
- Alyuminiy rejacho'p (h-profil);
- Trapetsiyasimon alyuminiy rejacho'p;
- Keng profil yoki zanglamaydigan po'lat tekislagich;
- Gubkali qirg'ich;
- Burchakli suvoq randasi;
- Suvoq arrasi.

MUHM!

Quruq gips aralashmalar turli rangda bo'lishi mumkin - oqdan tortib, to kulranggacha, hatto, pushti bo'lishi mumkin. Bu gips toshida tabiiy qo'shimchalar uchrashi bilan tushuntiriladi. Qorishma rangi uning xususiyatlariga hech qanday ta'sir qilmaydi.

Manzil:

Toshkent sh, Shaxrisabz q, 2, Tower 2, 5 qavat

Kontaktlar:

+998 78 150 11 59

+998 78 150 11 60

+998 78 150 11 61

KNAUF material va konstruksiyalarning asosiy parametrlariga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Barcha texnik xususiyatlar KNAUF firmasi tavsiya qilgan materiallardan foydalanilgan holatdagina ta'minlanadi. Materiallarni qo'llashga doir barcha ko'rsatmalar muayyan hisob-kitobga asoslangan bo'lib, ko'rsatilganidan farq qilgan holatda aniqlashtirilishi talab etiladi. Qo'shimcha maslahat uchun KNAUF texnik xizmatiga murojaat qiling.